

## JADIDLARNING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA OID ISLOHOTLARI TAHLILI

*Po'latova Dildora Aziz qizi*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*"Islomshunoslik" yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'r ganish*

*ICESCO" kafedrasi dotsenti **Muhabbat Agzamova***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik harakati vakillarining ilmiy-ma'rifiy merosi va uning yoshlari ta'lism tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Jadidlarning ilg'or g'oyalari, yangi usul maktablari, darslik va ta'lism metodikasiga qo'shgan hissasi hamda bu merosning bugungi ta'lism tizimi uchun ahamiyati, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy ong va zamonaviy tafakkur asosida tarbiyalashda jadidlar qarashlaridan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola jadidlar ilmiy merosining hozirgi ta'lism jarayoni bilan uyg'unligi va uning yoshlari kamolotiga ta'sirini ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, ta'lism tarbiya, ilmiy meros, pedagogik qarashlar, ma'rifatparvarlik, ta'lism islohoti, yosh avlod, milliy qadriyatlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy ta'lism.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni yangilash, ilm-fanni rivojlantirish, savodxonlikni oshirish, milliy o'zlikni anglash va mustaqillik sari intilish edi. Bu harakat siyosiy islohotlarga, ta'lism va tarbiya, madaniyat va ma'rifatni yuksaltirishga qaratilgan edi.

"Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "yangi", "yangilanish" ma'nolarini anglatadi<sup>1</sup>. Ushbu harakat tarafdozlari eski usulidagi ta'lism tizimini zamonaviy bilimlar asosida isloq qilishga harakat qilganlar. Ular matbuotni rivojlantirish, madaniyatni yuksaltirish va milliy taraqqiyotning ilg'or usullarini jamiyatga tadbiq etish orqali xalqni ma'rifat sari yetaklashga, mustamlakachilik siyosati sharoitida xalqning milliy va madaniy o'zligini saqlab qolishga, ilm-ma'rifat orqali jamiyatda tub o'zgarishlar qilishga intildilar va milliy mustaqillik g'oyalarini ilgari surdilar.

<sup>1</sup> <https://izoh.uz/word/jadid>. 17.03.2025

Bu harakatning asoschilaridan biri qrim-tatar ziyolisi Ismoilbek Gaspirinskiy bo‘lib, u “usuli jadid” tushunchasini shakllantirgan va uni butun Turk dunyosiga yoygan shaxs edi<sup>2</sup>.

Ismoilbek Gaspirinskiy o‘zining “Tarjimon” gazetasini 1883-yilda Qrimning Bog‘chasaroy shahrida nashr eta boshlagan. Ushbu gazeta jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilgan eng muhim matbuot vositalaridan biri bo‘lib, butun turkiy musulmon xalqlari orasida katta ta’sirga ega bo‘lgan. U gazeta orqali zamonaviy ta’lim, ilm-fan va taraqqiyotning ahamiyati haqida yozib, musulmonlarni jaholatdan xalos etishga chaqirgan. Gaspirinskiy “usuli jadid” tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “...ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o‘quv, boshqa bir maktab demak dagildir”<sup>3</sup>. Ismoilbek Gaspirinskiy bu ta’rifi bilan eski an’anaviy maktablarni butunlay yo‘q qilish emas, balki ularni zamonaviy usullar bilan isloh qilish kerakligini tushuntirgan. Eski usul maktablar faqat diniy ta’lim berib, dunyoviy bilimlarni e’tiborsiz qoldirgan, o‘quv jarayoni esa eskirgan usullarga asoslangan edi. Usuli jadid esa yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etib, tez va samarali o‘qitish, zamonaviy fanlarni o‘rgatish hamda millatni ilg‘or taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qilgan.

XX asr boshlariga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi kabi shaharlarda usuli jadid maktablari keng tarqala boshladi. Bu maktablar zamonaviy ta’lim tizimiga asoslangan bo‘lib, an’anaviy eski maktablardan farqli ravishda dunyoviy fanlar va ilg‘or pedagogik usullarni joriy etish bilan ajralib turardi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiri, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid ziyoilari bu harakatning asosiy tashabbuskorlari bo‘lishdi. Ular jadid maktablari orqali savodxonlikni oshirish, milliy ongni shakllantirish va jamiyatni ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash maqsadini oldilar.

Usuli jadid maktablarining ochilishi bilan ularni sifatli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minalash masalasi dolzarb muammoga aylandi. Ilgari mavjud bo‘lgan an’anaviy maktablar faqat diniy ta’lim berishga asoslangan bo‘lib, zamonaviy fanlar bo‘yicha kitoblar yo‘q edi. Samarqandlik ma’rifatparvar Hoji Mu’in bu muammoni alohida qayd etib: “1901 yildan e’tiboran Qo‘qon va Toshkentda, 1903 yildan Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katta shaharlarida son jihatidan bir daraja ko‘paygan bo‘lsa ham, 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat ba’zi tuzuklari davom etdi. Buning bir sababi kitobsizlik bo‘lsa, boshqa sababi o‘qituvchilarning usuli ta’limdan xabarsizliklari edi” – deb yozadi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> “Jadid dramalari poetikasi va sahnalashtirish masalalari: Muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 18-aprel). – B.95.

<sup>3</sup> Tilda fikrda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas’ul muharrir: G‘. Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B.22.

<sup>4</sup> Tilda fikrda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas’ul muharrir: G‘. Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B.23.

Bu vazifani jadid maktablarining tashabbuskorlari o‘z zimmasiga oldilar. Turkiston jadidlari savodxonlikni oshirish va sifatlari ta’lim berish maqsadida birin-ketin “Ustodi Avval” (Saidrasul Saidzaziziy), “Adibi Avval” (Munavvarqori Abdurashidxonov), “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (Abdulla Avloniy), “Tahsil ul-Alifbo” (Abduvahob Ibodiy), “Rahbari Avval”, “Tahzib us-Sibyon” (Sadriddin Ayniy) kabi alifbo va darsliklar yozib, nashr qildilar. Bundan tashqari, matematika, geografiya, tarix, imlo qoidalari, ona tili va adabiyot, islom dini tarixi kabi fanlar bo‘yicha Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy kabi jadidlar maxsus darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlab, nashr qildilar. Bu darsliklar yangi maktablarning rivojlanishiga xizmat qilib, o‘quvchilarning savodxonligi va bilimini oshirishda muhim omil bo‘ldi. Natijada, jadid maktablari Turkistonda ilm-ma’rifatning yangi davrini boshlab berdi.

Abdulla Avloniy 1913 yilda nashr etilgan “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asarida tarbiya va pedagogika masalalariga ilmiy yondashgan va uni aniq ta’riflagan<sup>5</sup>. Uning fikricha, pedagogika – bolaning tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ilmiy fan bo‘lib, insonning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishini ta’minlaydi. Avloniy tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini yuksak baholab, quyidagicha fikr bildiradi: vujud tarbiya orqali baquvvat bo‘ladi, fikr tarbiya orqali yorishadi, axloq tarbiya bilan go‘zallahadi, zehn esa tarbiya orqali charxlanadi. Avloniy tarbiyani bolaning tug‘ilgan kundan boshlab berish lozimligini ta’kidlaydi. U bolaga: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya berish zarur deb hisoblaydi<sup>6</sup>. Bola ilmli va odobli bo‘lishi uchun unga yaxshi xulq-atvor o‘rgatish muhimligi alohida ta’kidlanadi. Avloniy tarbiyaning ahamiyatini quyidagi misra orqali ifodalaydi:

*“Tug‘ub tashlov ila bo‘lmas bola, bo‘lgay balo sizga,  
Vujudi tarbiyat topsa, bo‘lur ul rahnamo sizga”<sup>7</sup>.*

Bu misralarda bolani tarbiya qilmay tashlab qo‘yish jamiyat uchun xavf tug‘dirishi, to‘g‘ri tarbiya berilgan bola kelajakda yo‘lboshchi bo‘lishi mumkinligi uqtiriladi.

Abdulla Avloniyning ilm-ma’rifat va axloqqa doir fikrlari juda chuqur tahlil va talqinni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart ekanligini alohida ta’kidlagan, olimning pedagogik qarashlarini yaxlit tarzda o‘zida aks ettirgan quyidagi g‘oya esa hech qachon

<sup>5</sup> Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – B.104.

<sup>6</sup> “Ilm fan taraqqiyoti: muammo, yechim va istiqbollari II an‘anaviy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent: 17-18-dekabr 2024. – B.1390.

<sup>7</sup> <https://jadid.uz/jadid-pedagogikasi/>. 17.03.2025

o‘z salmog‘i hamda ahamiyatini yo‘qotmaydi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur”<sup>8</sup>.

1905 yilgi rus inqilobi Rossiya imperiyasida demokratik o‘zgarishlar uchun muhim turtki bo‘ldi. Inqilob ta’sirida, podshoh Nikolay II 1905 yil 17-oktyabrdan manifest e’lon qildi. Bu manifest shaxs daxlsizligi, vijdon erkinligi va so‘z erkinligi kabi ayrim huquqiy kafolatlarni va’da qildi.

Bu o‘zgarishlar Turkiston jadidlariga milliy matbuotni rivojlantirish va o‘z qarashlarini ommaga yetkazish uchun muayyan imkoniyatlar yaratdi. Manifestdan foydalanib, milliy gazetalar va jurnallarni nashr etish uchun rasmiy ruxsat olindi. 1905-1917 yillarda jadidlar ilm-ma’rifat va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilish maqsadida gazeta va jurnallar chiqarishga harakat qilishdi. Ushbu davrda Turkistonda birinchi milliy matbuot na’munalari paydo bo‘ldi:

- “Taraqqiy” (1906) – birinchi o‘zbek gazetalaridan biri, Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan nashr etilgan<sup>9</sup>.
- “Hurshid” (1906) – jadidchilik harakatining ilg‘or g‘oyalarini targ‘ib qilgan nashr.
- “Shuhrat” (1907) – xalqni ma’rifat sari yetaklashga xizmat qilgan gazeta.
- “Tujjor” (1907) – savdo va iqtisodiy masalalarga e’tibor qaratgan gazeta.
- “Osiyo” va “Samarqand” (1913) – Samarqand jadidlari tomonidan nashr etilgan.
- “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” (1914) – Turkiston va Farg‘ona jadidlarining matbuot maydonidagi muhim yutuqlari.
- “Oyna” (1913) – Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan eng mashhur jadid nashrlaridan biri.
- “Al-Isloh” (1915) – islohot va ma’rifiy yangilanish g‘oyalarini ilgari surgan jurnal.

Milliy matbuotning bu ilk na’munalarining ko‘pchiligi uzoq yashamadi. Ularning aksariyati faqat bir necha son chiqargandan so‘ng yopib qo‘yildi. Sababi shundaki, gazetalarda xalqni savodli qilish, milliy uyg‘onish, jamiyatni rivojlantirish, o‘zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy islohotlar zarurligi haqida ilg‘or fikrlar ilgari surilgan edi. Rossiya imperiyasi esa jadid matbuotining xalq orasida ta’sir kuchayib borayotganidan xavotirga tushdi. Shu sababli, ko‘pgina gazetalar “hurfikrliligi” uchun bosimga uchrab, tez orada yopib qo‘yildi, ayrim noshirlar esa quvg‘in qilindi yoki qamoqqa tashlandi.

XX asrning 1910-yillarida Turkiston madaniyatida yangi o‘zbek milliy teatrining vujudga kelishi muhim voqeа bo‘ldi. Ushbu jarayon jadidchilik harakati

<sup>8</sup> “Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi tezislar to‘plami Toshkent: 2021. – B.115.

<sup>9</sup> Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxoasi nashriyoti, 2005. – B.192.

bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, milliy ongni yuksaltirish va xalqni ma’rifat sari yetaklash maqsadida sahna san’ati ham jadidlar tomonidan faol rivojlantirildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911 yilda o‘zining “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” nomli dramasini yozdi<sup>10</sup>. Bu asar o‘zbek dramaturgiyasi tarixida birinchi milliy fojia bo‘lib, unda ilm-ma’rifatning ahamiyati, johillikning zararli oqibatlari va oiladagi tarbiyaning muhimligi aks ettirilgan. Pyesani nashr ettirish uchun urinishlar ikki yil davomida muvaffaqiyatsiz kechdi. Rossiya imperiyasi tomonidan berilgan senzura to‘sirlari uni chop etishga ruxsat bermas edi. 1912 yilda ushbu asar rus-fransuz urushining Borodino jangidagi rus g‘alabasining 100 yilligi munosabati bilan Tiflis senzura qo‘mitasiga yuborildi. 1913 yil 23 martda Tiflis matbuot ishlari qo‘mitasi asarni faqat Kavkaz hududlarida sahnalashtirish sharti bilan chop etishga ruxsat berdi. Shu asosda 1913 yilda “Padarkush” Samarqandda alohida kitob holida nashr etildi. Bu drama tez orada xalq orasida mashhurlikka erishdi va milliy teatr rivojiga katta turtki berdi. “Padarkush” milliy sahna san’atining shakllanishiga, dramaturgiyaning rivojlanishiga va jamiyatda ma’rifiy islohotlarning tezlashishiga xizmat qildi. Keyinchalik ushbu asar jadid teatri sahnalarida namoyish etilib, o‘zbek teatr san’atining asosiy tamal toshlaridan biriga aylandi. Behbudiyning ushbu ijodi ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan o‘z davri uchun nihoyatda muhim bo‘ldi.

Teatrdan birlamchi maqsad yangi, g‘oyat ta’sirchan san’at turi bilan millatning ma’rifiy-madaniy saviyasini ko‘tarish, ilm va o‘qimoqqa da’vat etish bo‘lsa, ikkinchidan, teatr-tomoshalar vositasida muayyan mablag‘ topib, “usuli savtiya” maktablari, boshqa xil o‘quv yurtlari, xayriya jamiyatlari, matbuot va boshqa madaniy ishlarga moddiy yordam ko‘rsatish edi.

Toshkentda 1913 yil “Turon” nomli teatr truppasi tashkil etildi<sup>11</sup>. Bu jamoa faqat tarjima asarlarni emas, milliy dramaturgiyamizning yangi na’munalarini ham muntazam sahnalashtirib bordi. O‘zbek teatr san’ati shakllana boshladi va mahalliy dramaturglar o‘z ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun sahnaga ega bo‘ldilar.

“Turon” teatr truppasi 1915-1916 yillar mobaynida o‘z repertuariga bir qator milliy asarlarni kiritdi. Jumladan: Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Hoji Muinning “Mazluma xotin” pyesalari sahnalashtirildi. Bu asarlar orqali o‘zbek teatri milliy ruh va ijtimoiy masalalarni aks ettiruvchi sahna san’ati sifatida shakllana boshladi. Milliy teatr rivojlanishi bilan birga ilk o‘zbek rejissyorlari ham maydonga chiqdi. Bu sohaning dastlabki namoyondalari Nizomiddin Ho‘jayev, Abdulla Avloniy, Badridin Alamov bo‘ldilar. Ular milliy sahna san’atining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynab, yangi spektakllarni sahnalashtirish orqali o‘zbek teatrini

<sup>10</sup> N.Karimov / Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: O‘zbekiton, 2011. – B.38.

<sup>11</sup> <https://ziyoratga.uz/uz/blog/znamenitaya-pervaya-teatralnaya-truppa-svoego-vremeni>. 17.03.2025

mustahkamlashga xizmat qildilar. Abdulla Avloniy o‘zining “Tarjimai holi” asarida teatrning asosiy maqsadini quyidagicha bayon qilgan edi: “Bizning maqsadimiz, zohirda teatr bo‘lsa ham, botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”<sup>12</sup>. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, jadid teatrining vazifasi madaniy-ma’rifiy, siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Turkiston yoshlarini milliy uyg‘onishga undash, ularni mustaqillik sari tayyorlash teatr orqali amalga oshirilgan muhim vazifalardan biri bo‘ldi.

Jadidlik harakati va uning vakillariga nisbatan 1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab bosim kuchaya boshladi. Matbuot sahifalarida boshlangan bahsmunozaralar asta-sekin siyosiy tus oldi. Sovet hukumati jadidlarni qarshi kuch sifatida ko‘ra boshladi va ularning g‘oyalarini aksilinqilobi harakat deb baholadi. 1927 yilda rasmiy qaror qabul qilinib, jadidchilik “soviet mafkurasiga qarshi aksilinqilobi harakat” deb e’lon qilindi. Jadid namoyandalari “ziyo tarqatuvchi ziyorolar” emas, “xalq dushmanlari” deb tamg‘alandi. 1929 yildan boshlab, jadidlarga nisbatan jismoniy qatag‘onlar boshlandi. Ko‘plab taniqli jadidlar qamoqqa olinib, surgun qilindi. Jumladan: Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Ho‘jayev, Salimxon Tillaxonov, Saidnosir Mirjalilov, Qayum Ramazon kabi yetuk jadidlar hibsga olindi va qattiq jazolandı<sup>13</sup>. 1937-1938 yillardagi qatag‘onlar jadidchilik harakatiga tamomila barham berdi.

Jadidlarning aksariyati qatl etildi, omon qolganlari esa shafqatsiz ta’qib ostida qoldi. Shu tariqa, millatni uyg‘otish va rivojlantirishga intilgan jadidlar tarix sahnasidan majburan olib tashlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalash va innovatsion islohotlarni joriy etishdan iborat edi. Ular ta’lim va ma’rifat orqali o‘lka aholisining turmush tarzini yaxshilash hamda ma’naviy ongini yuksaltirishni o‘z oldilariga dolzarb masala qilib qo‘ydilar. Jadid ma’rifatparvarlari Turkiston mintaqasida milliy ozodlik harakatini rivojlantirishni jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq deb bildilar. Ular o‘z siyosiy faoliyatlarida milliy istiqlolchilik g‘oyalarini ilgari surib, Chor Rossiyasi hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turdilar, hamda milliy rivojlanish, mustaqillikka erishish yo‘lida muhim omil ekanligini erta angladilar va shu asosda faoliyat yuritdilar. Shuning uchun ham ular ezilgan, huquqlari poymol etilgan Turkiston xalqlarini milliy ozodlik kurashiga chorlab, bu yo‘lda fidokorona xizmat qildilar.

<sup>12</sup> Tilda fikrda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas’ul muharrir: G‘. Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B.25.

<sup>13</sup> Tilda fikrda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas’ul muharrir: G‘. Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B.25.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. “Jadid dramalari poetikasi va sahnalashtirish masalalari: Muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 18-aprel) – 174 b.
2. “Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. – Toshkent: 2021 – 342 b.
3. “Ilm fan taraqqiyoti: muammo, yechim va istiqbollari II an’anaviy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent: 17-18-dekabr 2024.
4. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxoasi nashriyoti, 2005. – 304 b.
5. Tilda fikrda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas’ul muharrir: G‘. Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – 368 b.
6. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma /Sh. Mardonov, U. Zokirova. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. - 272 b.
7. N.Karimov / Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: O‘zbekiton, 2011. – 80 b.
8. <https://izoh.uz/word/jadid>
9. <https://jadid.uz/jadid-pedagogikasi/>
- 10.<https://ziyoratga.uz/uz/blog/znamenitaya-pervaya-teatralnaya-truppa-svoego-vremeni>